

UDC (UDC, УДК): 82-23

YOZUVCHI VA DRAMATURG ALP JAMOL IJODIYOTI³⁰***Rasulmuxamedova Dilfuza Zokirovna***

Katta o'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: Rasulmuxamedova@mail.ru

Tel: +998909511042

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Alp Jamolning ijodiy faoliyati va dramaturgiya janriga qo'shgan hissasi chuqur tahlil qilinadi. Uning hayot yo'li, asarlarining badiiy xususiyatlari, milliy adabiyotga ta'siri va hajviy hikoyalarining o'ziga xosligi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Alp Jamol ijodi o'zbek adabiyoti, dramaturgiyasi va telejurnalistikasida muhim o'rin egallaydi. Adib tomonidan yozilgan "Toshteshar", "Jafoga vafo", "Quvg'in", "To'ydagi tugun", "Mehribonlar", "G'izg'izon" kabi asarlar sahnada namoyish etilgan va teatr hamda televideniyaadagi hajviy spektakllarning rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan. Maqolada adib asarlarining jamiyatga ta'siri, obraz yaratish mahorati hamda adabiy tahlil asosida baholangan. Shuningdek, adibning adabiyotshunoslikka qo'shgan hissasi, u haqidagi ilmiy tadqiqotlar ham ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR

Alp Jamol, dramaturgiya, televizion miniatyuralar teatri, hajviya, telenovella, o'zbek adabiyoti, teatr san'ati, adabiy tahlil, intermediya, ijtimoiy tanqid.

Received: January 12, 2025**Accepted:** March 24, 2025**Available online:** May 2, 2025

³⁰ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Rasulmuxamedova D. Yozuvchi va dramaturg Alp Jamol ijodiyoti.// Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 359-371.

THE CREATIVE OF THE WRITER AND DRAMATURGER ALP JAMAL***Rasulmukhamedova Dilfuza Zakirovna***

Senior teacher

Uzbek State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

Email: Rasulmuxamedova@mail.ru

Tel: +998909511042

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of Alp Jamol's creative work and his significant contributions to the genre of dramaturgy. Extensive information is presented regarding his life trajectory, the artistic qualities of his pieces, his impact on national literature, and the uniqueness of his comedic narratives. Alp Jamol's contributions hold a significant position in the realms of Uzbek literature, dramaturgy, and television journalism. Works written by the writer, such as "Toshteshar", "Jafoga vafo", "Kuvgin", "Toydagi tugun", "Mehribonlar", "Gizgizon" were performed on stage and made a huge contribution to the development of comic performances in theater and television. In this article, we will be examining the profound influence of the writer's works on society, his remarkable ability to create vivid and captivating imagery, and the insightful literary analysis that supports these claims. The writer's impact on literary studies and scientific research surrounding him is also highly regarded.

KEY WORDS

Alp Jamol,
dramaturgy, television
miniature theater, satire,
telenovela, Uzbek
literature, theatrical art,
literary analysis,
interludes, social criticism.

ТВОРЧЕСТВО ПИСАТЕЛЯ И ДРАМАТУРГА АЛПА ДЖАМОЛА***Расулмухамедова Дилфуза Закировна***

старший преподаватель

Узбекский государственный университет

мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: Rasulmuxamedova@mail.ru

Тел: +998909511042

АННОТАЦИЯ

В данной статье глубоко анализируется творческая деятельность Алп Жамола и его вклад в развитие драматургии. Приводится подробная информация о его жизненном пути, характеризуются художественные особенности его произведений, в частности, созданных им юмористических рассказов, освещаются вопросы влияния его творчества на национальную литературу. Творчество Алп Жамола занимает важное место в узбекской литературе, драматургии и тележурналистике. Такие произведения писателя, как «Тоштешар», «Жафога вафо», «Кувгин», «Тўйдаги тугун», «Мехрибонлар», «Ғизғизон», были поставлены на сцене и внесли большой вклад в развитие жанра сатирического спектакля в театре и на телевидении. В статье оценивается влияние произведений Алп Жамола на общественное сознание, присущее данному автору мастерство художественного анализа и создания образов. Также рассматривается вклад писателя в литературоведение и научные исследования о нем.

**КЛЮЧЕВЫЕ
СЛОВА**

Алп Жамол, драматургия, телевизионный театр миниатюр, комедия, теленовелла, узбекская литература, театральное искусство, литературный анализ, интермедия, социальная критика.

KIRISH

Hozirgi kun adabiy jarayonida Alp Jamoldek o'tkir mahorat egalarining asarlari muhim o'rin egallaydi. Biz bugun tahlilga tortgan adib, noshir, dramaturg va sermahsul ijodkor asarlari va uning mashaqqatli hayot yo'li, ko'pchilik ilm ahli, jumladan adabiyotshunoslar va talabalar, shu soha vakillarini qiziqтира ko'zlagan maqsadga erishgan bo'lamiz. Ijodkorlar ko'p, ularning orasida halol, vijdon amri bilan yashab, halol kasb qilib turmush mashaqqatlari bilan kurashib yashaganlari u qadar ko'p emas. Bugun so'z ochganimiz, buyukligini ko'pchilik sezib sezmay qolgan atoqli yozuvchimiz Alp Jamol – Jamoliddin Asomiddinovidir. Asli Toshkentlik ijodkorlardan edi. U 1915-yilning 20-avgust sanasida Toshkent shahrining Chuvalachi mahallasida tavallud topgan. Adibning otasi Asomiddin Mirazimboy o'g'li farzandlariga o'ta e'tiborli, talabchan inson bo'lib, o'z farzandlarini uyda o'qitgan, ilm bergan. Miskin, Xislat, Tavallo kabi shoirlar va ijod ahli bilan qadrdon bo'lgan ota o'z farzandlarini uyda o'zi ilm olishi bilan mukammal shug'ullangan. (Asomiddinov A., 2000)

Bu tarbiya jarayoni adibning keyingi ijod yo'lini aniq belgilagan bo'lsa, to'g'ri fikr deb tan olish mumkin. Chunki, adib o'ta zukko, xalq og'zaki ijodini juda sevadigan, fors tilini yaxshi biladigan, arabcha yozuvdagi asarlar va ularning matnini juda to'g'ri sharhlaydigan, tahlil qiladigan darajaga yetgan. Shuning uchun ham Fozil Yo'ldosh o'g'li bilan birgalikda Til va adabiyot institutining folklor sho'basida faoliyat yuritadi. Shu asosda uni institutga ham ishga olishgan edi. Bu holat u qadar uzoq davom etmadi. Davr taqozosiga ko'ra Navoiyga bag'ishlangan katta anjumanda olimlarning "Navoiyni dinga qarshi bo'lgan, hattoki dinsiz edi" – degan gaplariga qarshi chiqib, mashhur tarixchi olim Xondamirning asarlaridan misollar keltirib, Navoiy juda ko'plab masjidlar qurdirgani va o'sha masjidlarda o'zi ham namoz o'qiganligi haqida ma'lumotlarni aytadi (Asomiddinov A., 2000). Zamona zayli va davr taqozosi bilan o'sha kuniyoq adibni ishdan bo'shatib, yetmaganiga yana qattiq ta'qib ostiga olishadi. Shu tariqa adib ikki yil ishsiz sargardonlikda qoladi, nihoyat oddiygina bozorga pattachi (Chorsu bozoriga) bo'lib ishga kiradi (chunki o'sha vaqtlarda siyosiy ta'qibdagilar davlat ishlariga umuman

qabul qilmagan). Bozorda ishlashiga qaramasdan adib ijodni to'xtatmagan, aksincha juda ko'plab hajviy asarlar yozib, "Mushtum", "Qizil O'zbekiston" kabi jurnal va gazetalarda chop ettirib yurgan. Aynan shu yillarda adib hayotida o'ta mudhish voqea yuz berdi. Adibning katta farzandi Alpiddin Jamoliddinov to'satdan 13 yoshida hayotdan fojeali ravishda ko'z yumadi. Bu holat adib ruhiy olamiga qattiq ta'sir etdi. Shu voqea sabab Alp Jamol keyingi asarlariga "Alp Jamol" degan taxallus bilan ijod qila boshlagan. (Farzand dog'i ota qaddini bukib qo'ydi, ammo adib o'g'li xotirasini abadiylashtirish uchun ham keyingi yozgan asarlarini Alp Jamol taxallusi bilan nashr ettirgan). Shundan so'ng adib ijodida ham o'zgarishlar yuz berdi, 1961-yilda O'zbekiston teleradiokompaniyasiga oddiy muxbir bo'lib ishga kirgan yozuvchi o'tkir ijodni boshganligi va shu orqali o'zbek adabiyotida yangi ijodkor shaxsining vulqonday otilib chiqqanligini kuzatish mumkin. Shu tariqa ijod asta sekinlik bilan avjiga chiqa boshladi. 1969-yilda O'zbekiston televedinyasida juda katta shov-shuv bo'lgan "Qabrison" nomli asar mashhur rejissyor Mirabbos Mirzaahmedov tomonidan "Otlar so'zi – aqlning ko'zi" ko'rsatuvida namoyish etildi.

O'sha davrlarda bu kabi asarlar yaratilmagan, hattoki, O'zbekiston televedinyasida biror marotaba qabrison mavzusida ko'rsatuv bo'lmagan ekan. Tabiiyki, bu asar o'zbek xalqi orasida juda mashhur bo'ldi, tomoshabinlardan juda ko'plab xatlar kelgan.

Shu zayl birin-ketin adib asarlari xalqimiz orasida mashhur bo'la boshladi, jumladan "Toshteshar" asarida ham o'tkir ijtimoiy hayot mavzusi ko'tarilgan va aytishlariga qaraganda o'n marotaba muhokama qilingan ekan. To'g'riso'zlik, halollik, samiymlilik, kamtarlik, e'tiqod masalalari adibning asosiy quroli bo'lgan. Shuning uchun ham adib asarlari juda ko'p marotaba tanqidlarga uchragan. Ruhiy zo'riqish, asab buzarlklar Alp Jamol kayfiyatini buzmedi, aksincha, o'sha zamon qoidalariga mos ravishda yanada qatiq ishlashga harakat qildi. Bu tanqidlar natijasi o'laroq, asarlarining bir necha xil variantlari turar ekan. Adib farzandlari otalari vafotidan so'ng, 1999-yilda Alp Jamol asarlarini jamlab katta "Saylanma" shaklida nashr ettirdilar. Chunki adib o'ta kamtar bo'lib, doimiy ravishda asarlarini chop

etishga imkoniyati bo'lmagan, ba'zi asarlarining nusxalari saqlanmay ham qolgan ekan.

Alp Jamol ijodining asosiy yo'nalishlarini quyidagicha tasniflab ko'rsatish mumkin:

1. **Hajviy hikoyalar va intermediyalar.** Alp Jamolning ijodi hajviy hikoyalar bilan boshlanib, tez orada teatr va televideniya sahnasida intermediyalar shaklida davom etdi. "Mushtum" jurnali sahifalarida e'lon qilingan asarlari jamiyatdagi kamchiliklarni ochib berishga qaratilgan. U o'z hajviy asarlarida faqat kulgi bilan cheklanmay, axloqiy o'zgarishlarga chaqirgan.
2. **Dramaturgiya va teatr san'ati.** Adibning "Toshteshar", "Quvg'in", "Jafoga vafo" kabi sahna asarlari tomoshabinlar tomonidan katta qiziqish bilan qarshilangan. Ushbu asarlarda jamiyatdagi ijtimoiy muammolar, odob-axloq masalalari yoritilgan. Ularning sahnalashtirilishi zamonning eng dolzarb muammolarini aks ettirib, badiiy uslubning takomillashishiga sabab bo'ldi.
3. **Televizion miniatyuralar teatri.** Alp Jamolning television miniatyuralari o'zbek televideniyesining rivojlanishida katta o'rin tutgan. "Otalar so'zi – aqlning ko'zi" ko'rsatuvi orqali uning asarlari milliy auditoriya tomonidan qiziqish bilan kuzatilgan. Uning miniatyuralari jamiyatdagi turli illatlarni fosh qilish bilan birga, xalqni adabiy tarbiyalashga ham xizmat qilgan.

Alp Jamoldek taxallus ostida katta fojea – ijodkorning qayg'uli qismati, ikki nafar norasida farzandining taqdiri bor. Uning asarlarida tilga olingan mavzular hamon dolzarb, eskirmaydigan mavzulardir. Alp Jamolning "Otalar so'zi – aqlning ko'zi", "Televizion miniatyuralar teatri" ko'rsatuvlari bugun ham juda dolzarbdir.

"Asarlari bugungi kunga ham xizmat qilayotgan ijodkorlarning xotirasini ardoqlash burchimizdir, – deydi ustoz jurnalist, "Jahon adabiyoti" jurnali bosh muharriri Ahmadjon Meliboyev. Ularning jasorati, jur'ati, qat'iyati ham bugun juda kerak bo'lmoqda. Hayotning achchiq sabog'i shundayki, ulug'likka sira intilmagan, sodda va samimiy insonlarning qadrini ularni yo'qotganimizdan keyingina anglaymiz. Haqiqiy asarlarning tili, qahramonlari, ma'no-mazmuni sira o'zgarmas

ekan. Alp Jamoldek ijodkorning asarlari tili o'zbekona lutf, askiya, qochirimlarga uyg'un ekani bilan ahamiyatlidir.

Taniqli olimlarning ta'kidlashlaricha, Alp Jamol asarlarida tilga olingan illatlar bugun ham jamiyat murosasizlik bilan kurash olib borishi kerak bo'lgan kamchiliklardir.

“Alp Jamoldek ijodkorning xotira tadbirida ishtirok etayotganimizdan mamnunmiz”, – dedi Buyuk Britaniyaning Oksford universiteti o'qituvchisi Leyla Najafzoda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Uchinchi Renessans haqida ko'p gapiryaptilar. Ayni jihatga Yevropada ham katta e'tibor qaratilmoqda. Nazarimda, bu Renessans sari yo'l o'zbek ijodkorlarining asarlarini ularning original tilida o'qish bilan boshlanadi. Xorijlik o'quvchilar Alisher Navoiy, Alp Jamoldek ijodkorlar asarini o'zbek tilida mutolaa qilishni istaydi. Tadbirida O'zbekiston xalq artisti Xayrulla Sa'diyev, taniqli rejissyor Mirabbos Mirzaahmedov, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Shuhrat Sirojiddinov va boshqalar Alp Jamol taxallusi bilan ijod qilib millionlab yuraklarni zabt etgan Jamoliddin Asomiddinov 200 dan ortiq hajviy hikoya, intermediya muallifi ekanini ta'kidladi. Alp Jamolning “Toshteshar”, “Jafoga vafo”, “Quvg'in”, “To'ydagi tugun”, “Mehribonlar”, “G'izg'izon” kabi asarlari viloyat va poytaxt teatrlarida sahnalashtirilgan. Shu zayl Alp Jamol o'zbek adabiyotiga, dramaturgiyasiga, hajviyotiga, telejurnalistikasiga baholi qudrat hissa qo'shgan ijodkordir.

“Bugun televideniyeiga Alp Jamoldek ijodkorlar yetishmaydi,” – dedi taniqli jurnalist, O'zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori Abdusaid Ko'chimov. – “Alp Jamolni Teleminiatiyuralar teatrining qiroli deb atash mumkin. Ulug' ijodkorlarning qadriga yetaylik, ijodini o'rganaylik”.

“Mehribonlar” kitobida taniqli dramaturg, milliy teleminiatiyuralar teatri ko'rsatuvi asoschilaridan biri haqida zamondoshlar xotiralari, ijodkorning murakkab hayot yo'li, dunyoqarashi ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Asrlar davomida shakllangan milliy qadriyatlarimizga tayangan, bugungi kunda istiqlool mafkurasi

bilan sugʻorilgan, shu bilan birga, bizni umumbashariy ulugʻ maʼnaviyat sari yetaklayotgan milliy ongimiz, shuurimiz va dunyoqarashimizning shakllanishida badiiy adabiyotning oʻrni beqiyosdir. Alp Jamol asarlari haqida gap ketganda, adabiyot ahli orasida: “Badiiy asar qisqartirilgan borliq yoki voqelikning modelidir”, - degan fikrlar mavjud boʻlib, bu avvalo, har bir yaratilgan badiiy asarning insoniyat hayotining inʼikosi ekanligini tasdiqlaydi. Oʻzining badiiy asarlarida millatimizning yaqin oʻtmishi va bugungi hayoti, uning butun murakkabliklarini, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni izchil badiiy dalolatlar bilan tasvirlab adabiyot taraqqiyotiga oʻz hissasini qoʻshgan Alp Jamol haqida gap ketganda istiqlol yillarida shoʻrolar davrida ijod qilgan koʻpgina yozuvchilar oʻzlarining avval yaratgan asarlarini mustaqillik mafkurasi nuqtayi nazaridan qayta tahrir etishga majbur boʻldilar. Ammo Alp Jamol asarlari bunday tahrirlarga ehtiyoj sezmadir”. Albatta, bu soʻzlar bejiz aytilgan emas. Chunki Alp Jamol asarlarida insonlar hayotining zohiriy harakatlari, botiniy kechinmalari yetakchilik vazifasini oʻtaydi. Alp Jamol oʻz asarlarida qahramonlarining ruhoniyligi orqali inson va davr maʼnaviy dunyosining sarhadlarini tasvirlaydi. Aniqki, hech bir asarga badiiy obrazlar oʻz-oʻzidan kirib kelmaydi. Yozuvchi asariga qahramon tanlar ekan, avvalo, uni oʻz atrofidan izlaydi. Ijodkor asar uchun qahramon tanlar ekan, avvalo, asar qahramonlarining jamiyatga, ijtimoiy muhitga va aksincha, jamiyatning qahramonlar hayotiga taʼsirini diqqat markazida tutadi. Misol uchun, Alp Jamolning insonlar turmush tarziga, shu bilan bir qatorda ularning ruhoniyligiga qilgan taʼsirlarini koʻrishimiz mumkin.

Adibning qaysi asari bilan tanishmaylik unda samimiy mehr va oqibat, halollik, rostgoʻylik, tarbiya, chin doʻstlik masalalari ulugʻlansa, kinoyaga toʻla hajviy asarlarida esa, manmanlik, dabdababozlik, tekinxoʻrlik, pora, yalqovlik, yolgʻon, fahsh, dinsizlik illatlari qoralangan. Bu turdagi asarlar adibni Oʻzbekiston televedinyasidagi judayam dolzarb koʻrsatuvlaridan biri boʻlgan miniatyuralar teatriga mos va xos edi.

Oʻsha davrlarda juda katta muvaffaqiyatga erishayotgan televizion miniatyuralar teatri esa, aynan, Alp Jamol, Elbek Musayev, Farxod Musajanov

kabi yozuvchi va ijodkorlar bilan judayam yaqin aloqada ish olib bora boshlagan edi.

Miniatyuralar **teatri** repertuari ixcham asarlar (bir pardali pyesa, intermediya, muqallid, monolog, kulgili hikoya, hajviya va b.) dan iborat bo‘lib, ba’zan umumiy bir mazmun (syujet)ga bo‘ysundiriladi. Hayotda uchrab turadigan kamchiliklar, kulgili voqealar, kundalik muammolar hamda dolzarb mavzular satira va yumor orqali ifodalanadi. Yevropa uslubidagi zamonaviy Miniatyuralar teatri XIX asrning 2-yarmida Fransiyada paydo bo‘lgan. O‘zbekistonda bu janrdagi tomosha ildizlari qadim zamonlarda paydo bo‘lgan masxarabozlik teatriga taqaladi. Milliy uslubdagi Miniatyuralar teatri masxarabozlik, qiziqchilik san’atining juda ko‘p ko‘rinishlarini o‘zlashtirgan, davr ruhiga moslab rivojlantirilgan. 1962-yildan O‘zbekiston televideniyesi “Yoshlik” studiyasi qoshida “Televizion miniatyuralar teatri” ishlay boshlagan. Alp Jamol esa ushbu janrga juda tez moslasha oldi va o‘zining ko‘plab asarlari bilan miniatyura ixlosmandlari ko‘nglidan joy oldi.

Alp Jamol mahorati shunda ediki, qaysi asarni olib qaramang, inson o‘ziga kerakli g‘oyani juda oson topadi. Asarlarida ko‘tarilgan mavzular xalqchil, ommaga yoqadigan, keng ko‘lamli, kitobxon va tomoshabin ko‘nglidan juda tez joy oladigan, xotirasida tez saqlanadigan xususiyatlari bilan ajralib turar edi.

Alp Jamol ko‘zga ko‘ringan, el yurt tanigan juda ko‘plab, intermediyalar, televizion spektakllar, televizion novella muallifi hisoblanadi. Hayoti davomida yaratgan intermediyalari, televizion miniatyuralar teatrining eng sara, o‘ta kuchli satira va yumorga boy bo‘lgan, tagdor ma’noli xususiyatlari bilan ajralib turgan. Ijodkor o‘z umri davomida 200 dan ortiq intermediyalar muallifi bo‘lib, ularning 20 dan ortig‘i qariyb oxirgi 40 yil davomida televizion versiyada takroran o‘z tomoshabinlarini xursand qilishda davom etmoqda.

Shu o‘rinda mashhur adabiyotshunos olim B.Karimovning quyidagi fikrlarini, men hayoti va ijodini o‘rgangan adibim Alp Jamolga ham aloqasi bordek his etdim: “To‘g‘risi, bugun o‘zini munaqqid ataydigan va kelgusida shu soha bilan mashg‘ul bo‘lishni o‘z oldiga qat’iy maqsad qilib qo‘ygan yoshlarni topish juda qiyin ish. Nimaga? Tanqid hech kimga yoqmaydi. Ikkinchidan, tanqidchi degani bu

tinimsiz toshday soʻzboʻronlar yogʻdirib, nayzabardorlik bilan ijod ahliga yoʻl-yoʻriq koʻrsatadi, aql oʻrgatadi, degani emas. Adabiy tanqid - juda muhim ijod. Bunda estetik did, tahlil, baho berish, badiiy asarning goʻzalligini koʻrsatish yetakchi oʻrinda turadi. Badiiy va ilmiy-nazariy asarlarning jiddiy mutolaasi, muhokamalari, sintez va analizlari ortidan munaqqidning adabiy-nazariy mezonlari shakllanadi. Agar bugun koʻpchilikning adabiy tanqidchilikdan koʻngli toʻlmayotgan ekan, demak, shakllanishda nuqson, kemtik bor. Badiiy ijod ahli yozish bilan andarmon. Oʻquvchi oʻqiyotgan boʻlsa, nur ustiga nur. Yozilgan asar zoʻr, ajoyib, har tomondan ibratli. Aynan shuni oʻquvchi oʻqimasa-chi? “Oʻqinglar, azizlarim”, deb aytish ham adabiy tanqidning bir vazifasi.” (Karimov B., 2018)

Atoqli olim fikriga koʻra haqiqiy ijodkor oʻz asarini xalqqa taqdim etar ekan u xalq ruhiyatiga moslay bilishi kerak - “Ruh kirlansa - bu juda yomon”. Ruhi kir odamning komil odam boʻlishi qiyin. Ruhi kir odamning koʻngli kir va yolgʻonchi boʻladi. Badiiy adabiyot va sanʼat ruhiyat bilan shugʻullanadi. Lekin ruhiyatning aniq formulasi yoʻq. Inson oʻz ruhiyatiga oʻzi aniq tashxis qoʻya olmaydi, koʻpincha. Shu bois badiiy adabiyotda ham inson ruhiyatini toʻla-toʻkis ifoda qilib boʻlmaydi. Adabiyot inson ruhiyatining alifbosidir.

Bugungi kungacha ham oʻz asarlari bilan xalqimiz ruhiyatiga kira olishi mumkin boʻlgan samimiy ijodkor Alp Jamol ana shunday shaxslardan biri edi. Sobiq shoʻrolar davri tuzumining taʼziqiga uchragan oʻta halol va samimiy boʻlgani uchun ham juda katta mashaqqatlar evaziga boʻlsa ham oʻz soʻzi va ovozi bilan xalq qalbidan joy ololgan adiblar sirasiga kira oldi.

Bugungi kunda ham telenovella shaklida yaratilgan adibning “Mehribonlar” asari juda katta tortishuvlarga va koʻplab tomoshabinlarning eʼtirofiga tushgan boʻlib, ushbu asarda hozirgi kunning eng dolzarb muammosi, yaʼni farzand tarbiyasi masalasi aks ettirilgandir.

Bugun shunday dorilamon kunlarni koʻrishimizda, tinch va osuda hayot kechirishimizda, oʻzligimizni anglashimizda fidokor adiblarimizning xizmatlari juda kattadir. Yorugʻlikka chorlagan yorqin yulduzlarni unutmaslik, ular yaratgan asarlarni kelgusi avlodlarga ham yetkazish va shunday ajdodlariga munosib avlod

bo'lishlarini eslatib turish maqsadga muvofiqdir. O'zbek xalqining bu buyuk farzandiga kelgusida e'tiborni yanada kuchaytirishi va butun dunyoga shunday adiblar borligidan g'ururlanib gapirishlari, shubhasizdir.

Alp Jamol o'zbek teatr san'atida muhim o'rin tutuvchi shaxs bo'lib, uning sahna asarlari turli ijtimoiy va axloqiy masalalarni yoritadi. Siz sanab o'tgan asarlar Alp Jamolning ijodiy merosining bir qismi bo'lib, har biri o'ziga xos mavzularni ochib beradi. Keling, bu asarlarning qisqacha mazmuni va ahamiyatini ko'rib chiqamiz:

“Toshteshar” - bu asar, odatda, ijtimoiy adolat va insoniy munosabatlar haqida hikoya qiladi. Unda qahramonlar o'zaro munosabatlari va hayotdagi qiyinchiliklarga qarshi kurashishlari tasvirlanadi.

“Arosat” - bu asarda sevgi, sadoqat va xiyonat kabi mavzular yoritiladi. Qahramonlar orasidagi hissiy ziddiyatlar va ularning natijalari sahnada ko'rsatiladi.

“Quvg'in” asari qahramonning hayoti davomida duch keladigan quvg'in va ta'qib qilish holatlarini aks ettiradi. Bu asarda adolat va erkinlik uchun kurash mavzulari ko'tariladi.

“Bevafo yakan” – asar “Bevafo yakan” deb nomlangan, ammo inson ruhiyatidagi ichki ziddiyatlarni tasvirlaydi. Bu mavzuz amonaviy hayotda ham dolzarb hisoblanadi.

“To'ydagi tugun” – ushbu asar to'y marosimlari atrofida rivojlanadi va an'anaviy qadriyatlar, oilaviy munosabatlar haqida hikoya qiladi. Oila va jamiyat o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatadi. To'ydagi dabdabozliklar o'tkir tanqid ostiga olingandir.

“Mehribonlar” asari insonlarning bir-biriga bo'lgan mehr-muhabbatini, samimiy munosabatlarini faqatgina moddiyat ustiga qurilganligini aks ettiradi.

“G'izg'izon” – ushbu asarda shaxsiy va ijtimoiy masalalar birlashtiriladi. Qahramonning ichki kurashi va tashqi muhit bilan o'zaro aloqasi ko'rsatiladi.

Alp Jamolning bu asarlari o'zbek teatrining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan va ularning ijtimoiy, axloqiy va estetik ahamiyati bugungi kunda ham muhimdir.

Shu tariqa adib o'zbek adabiyotiga, dramaturgiyasiga, hajvchiligiga, telejurnalistikasiga katta xissa qo'shgan adiblardan sanaladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, hozirgi kungacha adib ijodi u qadar to'liq o'rganilmaganligi, asarlarining badiiy poetikasi, dramaturglik mahorati, asarlarida obraz yaratish mahorati masalalari to'liq tadqiqot obyektiga aylantirilib tahlilga tortilishi kerakligini alohida ta'kidlash zarur. Zero, hozirgi kun adabiy jarayonida Alp Jamoldek o'tkir mahorat egalarining asarlari hali hanuz o'rganilmayotganligi, adabiyotshunoslar e'tiboridan chetda qolayotgani juda achinarli holat sanaladi. Kelgusida Alp Jamol haqida ilmiy tadqiqotlar, ko'rsatuvlar, hujjatli filmlar ishlansa xalqimiz xotirasida haqiqiy bir ijodkorning yorqin siymosi yana bir marotaba jonlansa ajab ermas.

XULOSA

Alp Jamol o'zbek adabiyoti va sahna san'atida katta iz qoldirgan ijodkorlardan biridir. Uning hajviy hikoyalari, intermediyalari va sahna asarlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Kelgusida uning ijodini chuqur tadqiq etish va adabiy merosini kengroq yoritish zarur. Adib asarlari o'zbek xalqining ijtimoiy hayotini aks ettirish bilan birga, badiiy nutq imkoniyatlarini ham kengaytirgan. Uning dramaturgik tajribasi o'zbek teatrining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asomiddinov A. (To'plab nashr etuvchi) Alp Jamol haqida xotiralar. – T., 2000.
2. Asomiddinov A. Otam bilan suhbatlarim. – T.: Sharq, 2003.
3. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – T.: G'.G'ulom, 2018.
4. Salomov T. *O'zbek hajviy dramasi tarixi*. – T: 2010.
5. O'zbekiston Teatr va Kino Akademiyasi tadqiqotlari. – T: 2015.
6. Usmonova N. Hajviy hikoyalar qiroli. – T: 2023.
7. Tojimamatova M. "Oyimdan qolgan toshoyna qani?" yoxud o'zbek teleminiaturasi sardori. 2023.

REFERENCES

1. Asomiddinov, A(Collected and Published). (2000). *Memoirs about Alp Jamol*.
2. Asomiddinov, A. (2003). *Conversations with My Father*. Sharq.
3. Karimov, B. (2018). *The Alphabet of Spirituality*. Gʻ.Gʻulom.
4. Salomov, T. (2010). *History of Uzbek Satirical Drama*.
5. *Research of the Uzbekistan Academy of Theatre and Cinema*. (2015).
6. Usmonova, N. (2023). *King of Satirical Stories*.
7. Tojimamatova M. "Where is the mirror left by my mother?" or the leader of Uzbek television miniature. 2023.